

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

«LIBOSLAR DIZAYNI» KAFEDRASI

Isxakova Xolida

**Xon-atlas matosidan ‘pret-a-porte’ ayollar liboslari dizayn loyihasini ishlab
chiqish**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

dots. Raxmatullayeva U.

«____» _____ 2015 y.

TOSHKENT 2015

Mundarija

Kirish	1
1. Loyiha oldi qismi	5
1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish.....	5
1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.....	7
1.3. Marketing tadqiqotlar.....	9
1.4. Ayollar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar.	13
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.....	15
2. Loyiha qismi	18
2.1. Eskiz loyihalash.....	18
2.1.1. Kolleksiyaning kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash.....	18
2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.	27
2.2. Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.....	43
2.3. Konstruktor - texnologik qism.....	44
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.....	44
2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash.....	49
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	51
2.3.4. AK va BK hisobi va qurish.....	53
2.3.5. AK va BK konstruktiv - dekorativ modellashtirish.....	54
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.....	55
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi.....	55
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.....	65
2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari.....	66
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	67
2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).....	67
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	68
3. Ekologik qism	69
Xulosa	72
Ilova	
Adabiyotlar ro'yxati	73

Kirish

“2014-yilda Respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari to’g’risida” Islom Karimov ma’ruzasi bo’yicha

“To’qimachilik va yengil sanoati sarmoyalarni sarflash uchun uchinchi yo’nalishdir. O’zbekiston-jahonda ko’p paxta yetishtiradigan davlatlardan biridir. Bundan tashqari, ipak, sun’iy tola, jun kalava ishlab chiqaramiz. Biz to’qimachilik va yengil sanoat tarmog’ini har tomonlama yangilash loyihasini tayyorlashga doir barcha ishlarni qo’llab quvvatlaymiz”[1].

Yengil sanoat hodimlari, korxonalari, qayta qurish uskunalari zamonaviylashtirish ishlab chiqarishni kompleks mehanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, yuqori sifatli kiyimlarning ommaviy turlarini tikadigan yuksak usuli, tezda qayta moslanuvchi yangi potok liniyalarini qurish yo’li bilan ishni tubdan o’rganishlari kerak.

Tikuvchilik sanoatida bu vazifalarni bajarishda uchun texnologiyani takomillashtirish talab qilinadi. Yangi kam operatsiyali texnologiyalar yaratish tikuvchilar buyumlariga ishlov berishdagi takomillashtirishdagi istiqbolli yo’nalish hisoblanadi.

O’zbekistonda ishlab chiqilayotgan korxonalar borgan sari ko’payib bormoqda, bu bizning yurtimiz uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish ortgan sari mamlakatda bozor iqtisodidagi eksport va import ham ortib boradi. Davlat budjeti ham kengayadi. Mamlakatimiz rivojlanish jihatdan ilgariga chiqadi.

Hozirda mamlakatimiz yengil sanoat bo’yicha urli mamlakatlar bilan aloqa qiladi. Bular Rossiya, Turkiya, Fransiya, Germaniya va boshqalar.

Kiyim insoniyat moddiy madaniyatining elementidir. Kiyim ishlab chiqarishni loyihalayotganda fan-texnika va amaliy san’atning so’nggi yutuqlaridan eng yuqori darajada foydalaniladi, qulay kompozision va konstruktiv yechimlar tanlab olinadi. Tikuvchilik ishlab chiqarishning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda – mehnat unumdorligini oshirishdagi pirovard natijaga erishishda, ishlab

chiqariladigan mahsulot sifatini yaxshilashda–texnologiya, mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish sohasida erishilgan yangi yutuqlarni joriy qilish yo’li bilan texnik qayta qurollantirish asosiy rol o’ynaydi. Bo’lajak buyumning sifati va uni yaratilayotganida asos solinadi. Ilgarilari kiyim yakka tartibdaxonaki tartibda tikilgan. Asta-sekin kiyim tikish markazlashib, atelyelarda, fabrikalarda tikiladigan bo’lib, tikuvchilik sanoati vujudga keldi. Mustaqillikka erishilgandan so’ng, yurtboshimiz tomonidan to’qimachilik va yangi sanoat yo’nalishlariga ham alohida e’tibor qaratildi. . Keyingi yillarda O’zbekistonda yirik tikuvchilik sanoati barpo qilishga va uni rivojlantirishga e’tibor berildi. O’zbekiston yirik tikuvchilik sanoati bor respublikaga aylandi. Tikuvchilik korxonalari harbiy kiyim-kechak tikishga o’tkazildi. Shu yillari hamma tikuvchilik korxonalarida majburiy ravishda kiyim tikishning sifatli texnologik qurilmasi ishlab chiqildi. O’zbekistonda tikuvchilik sanoati ishlab turgan korxonalarni yangi texnika bilan qayta qurollantirish hisobiga rivojlandi [2].

“Milliy matolar” va "Xon-atlas kuni" kabi moda festivallarida yosh dizaynerlarning modellari shaklining jozibador va ixchamliligi, aniq mutanosibligi o'zbek milliy libosi an'analari va zamonaviy moda shakllarining uyg'unlashtirishi matoga o'zgacha badiiy yondoshish bilan uyg'unlashib o'zga dizaynerlardan ajralib turadi.

Ushbu bitiruv malaka ishida “Xon-atlas matosidan prêt-a-porter ayollar liboslari dizayn loyihasini ishlab chiqish” mavzusi tanlab olindi.

Tanlangan mavzu dolzarbligi shundaki, hozirgi kungacha va kelajakda ham dolzarb hisoblanadigan milliy matolarimiz bo’lmish xon-atlasdan yoshlar bop kiyimlarda foydalanish, hamyonboplikka , ham qulaylikka, ham zamonaviylikka erishishdir.

Tanlangan to’plamni milliylik bilan uyg’unlashtirib, milliy ruhdagi zamonaviy liboslar yaratish asosiy bosh maqsadlaridan biridir. Hozirgi kunda eng dolzarb hisoblangan ayollar prêt-a-porte uslubidagi liboslarida milliy matolarni qo’llab, kundalik hayotda doimiy kiyimga aylantirish keyingi maqsadlarimizdan

biridir. Negaki, milliy matolar qo'llanilgan ayollar ko'ylaklarini deyarli hamma texnikada aks ettirilganini ko'rish mumkin. Endilikda, xon atlas matosi naqshlarini takrorlab turli rangdagi dekor sifatida qo'llaniladigan toshlardan bilan bezak berildi. Hozirda, istiqbolli moda yo'nalishida qo'llanilayotgan yorqin ranglarga e'tibor katta, demakki ijodiy manbaa hisoblangan shimol yog'dusidagi ranglar ham zamonaning muxim mavzusiga aylangan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, milliylik va zamonaviylikni chambarchas bog'lagan holda, milliy ruhga ega bo'lgan zamonaviy liboslar to'plamini yaratish bilan birgalikda- milliyligimizni yuqori darajaga yetqazishdir.

Xon-atlas matosidan ayollar prêt-a-porter liboslari dizayn loyihasini ishlab chiqishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- Xon-atlas matosidan prêt-a-porter ayollar libosiga qo'yiladigan talablarni aniqlash;
- Loyihalanayotgan assortiment bo'yicha o'xshash modellarni taxlil qilish;
- Bozor marketing tadqiqotini olib boorish;
- Ijodiy manbani tanlash va asoslash;
- Kolleksiyaning kompozision va rangli yechimini tanlash;
- Loyihalanayotgan kolleksiyani material paketini konfektsiyalash;
- Konstruksiyalash va andozalarni tayyorlash tamoyillari tavsifini ishlab chiqish;
- Mantiqiy qatorni tuzish;
- Modellar kolleksiyasini yaratish;
- Asosiy modelni tuzishdan iborat.

Bitiruv malaka ishi kirish, loyihalash qismi, konstruktor-texnologik qism, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bu loyihada zamonaviylik ruhini uyg'unlashgan holda ayollar uchun nafis "yuksak moda" yo'nalishi bo'yicha libos yaratish maqsad qilib olindi.

Ijodiy manbaalar yechimi, marketing tadqiqot ishlari bilan birgalikda konsrtuktiv yechimlargacha o'rganib chiqish bosh vazifalardan biri deb olindi. Bundan tashqari, xon atlasga bo'lgan talablar, iste'molchinig tendensiya modaga bo'lgan qiziqishi,

zamonaviylikka nimalarga ko'proq e'tibor qaratilyapti barchasini o'rganib chiqiladi. Dizaynning kolleksiya yaratishdan oldingi nimaiki, vazifalari bo'lsa, ushbu bitiruv malaka ishida barchasiga javob topib, bajarishga harakat qilindi [3].

1.Loyiha oldi qism

1.1. Xon-atlas matosidan prêt-a-porter ayollar libosi konsepsiyasini ishlab chiqish

Dizaynda konsepsiya – asosiy g'oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma'naviy yo'nalishidir.

Zamonaviy dizaynni muammolarida ijodiy konsepsiya muammosi (asosiy g'oya, loyihalash maqsadi va vazifalarini, ma'naviy yo'nalishi) markaziy o'rinni egallaydi. Kontseptuallik – bu loyiha madaniyatning mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy konsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy konsepsiyaning mazmuni va harakteri nafaqat, muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan balki, loyiha madaniyati va jamiyatni rivojlanish asosiy rag'batlari bilan bog'liq. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ularning muammolarini yechishda o'z hissasini kiritish lozim.

Dizayn konsepsiyalarini loyihalash quyidagi asosiy yo'llar bilan kechadi:

- baholash yo'li loyihalashni jamiyat va insonning turmush tarzi va shaxsning turini, ijtimoiy va shu jumladan, estetik qoidalari bilan bog'liq ob'ektiv va sub'ektiv boyliklarni yaratish faoliyatini ko'rib chiqadi;
- tizim yo'li dizayner loyihalash ob'ekti moddiy – funksional va ijtimoiy – madaniy elementlarini o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqadi. Tizim yo'li muhit, uning elementlarini, inson va jamiyatni ishtirokida o'tayotgan jarayonlar orasidagi aniq funksional bog'liqlarni aniqlashni ko'rib chiqishni talab qiladi. Loyihalashda shunday yo'lning natijasi – tizimli ob'ektni tuzilishi;
- muhim yo'li – inson fazoviy – buyum muhitini, hayotiy atrofni o'zlashtirish natijasini ko'rib chiqadi. Insonning faoliyati va muomalasi muhitni ayrim elementlarini birgalikda bog'laydigan markaz va aniqlaydigan 7eomet sifatida e'tiborga olinadi. Bu holda loyihalash yaxlit siymoni yaratishga va muhitni funksional tashkil etishga yo'naltirilgan.

Dizaynerlarning muallif ijodiy konsepsiyalari, odatda, loyiha madaniyatni rivojlanish umumiy tendensiyalaridan xoli emas va dizaynda mavjud u yoki bu umumiy konsepsiyalarga qayd qilmaydi [4].

Bitiruv malaka ishida konsepsiya sifatida 8eometric shakllar tanlab olindi.

Chunki xon atlas matosining naqshlari aynan 8eometric shakllarni eslatadi. Shuning uchun ham “8eometric shakllar asosida xon-atlas matosi naqshlarini o’rganish” asosiy g’oya qilib olindi. Ushbu to’plamda mato naqshlari ranglarini takrorlovchi yorqin rangli toshlar bezak sifatida qo’llanildi.

1.2. Xon-atlas matosidan prêt-a-porter ayollar libosi to'plami dizaynloyihasini ishlab chiqish bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi

Ayollar uchun libos loyihalaganda, faqat podium emas kundalik hayotta ham dolzarblikni nazarda tutadi. Dabdabali gullar Parijda bo'lib o'tgan Moda haftaligida e'tiborga sazovor bo'ldi. Yorqin va ekzotikaga boy o'simliklar Chanel, Eliesaab, Viktor&Rolf, Giambattista Valli, Yanina, Couturening liboslar to'plamida kuzatish mumkin. Qizil atirgullardan qilingan pret-a-porter uslubidagi kiyimlar eng mashhur brend Dolce&Gabbana ham bor (1- rasm). Yorqin gulli printlar, naqshlar va bezaklarga Oscar de la Renta, Blumarine, Celine, Comme des Garçons Simone Rocha, Micheal Korsda ham uchraydi.

Yozgi liboslarni oq rangsiz tasavvur etish qiyin. Bu ranglardan o'zining liboslar to'plamida foydalangan dizaynerlar Dior, Carolina Herrera, Hermes, Louis Vuitton, Blumarine, Versace, Karl Lagerfeld "tepasi oq, pasti qora" usulidan foydalandi.

Dekolte o'rniga bu mavsumda dizaynerlar yelkani butkul ochiq qilishni ma'qul ko'rishdi. Balenciaga va Hugo Boss oddiy oqshom liboslari yaratishdi va bezaklarni minimal ishlatishdi. Erdem aksincha ko'ylaklarini gullar bilan bezadi.

Yelkaqirqimlaridagi yorqino'zgarishi. Kostyumdagitaxlamalar, choklar, printlari yordamchi bo'linmabo'lib, siluetning har xil shaklini yaratadi. Misol uchun, kiyimning o'zidagi konstruktiv bo'linmalar boshidabo'lmasa ham belchizig'ining ko'tarilib tushishida ko'rish mumkin.

Sariqtilla, yorqin, quyoshli, kanareykarangli yoki oqish, nafis ranglar – bu mavsumda dizaynerlar aynan shu ranglardan unumli foydalanishdi. Buni Celine va Chloening liboslar to'plamidagi yozgi ko'ylaklaridagi ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Dolce&Gabbana 2015-yil bahor-yoz kolleksiyasi

1.3. Marketing tadqiqotlar

Marketing tadqiqoti va bozorni o'rganishdan asosiy maqsad iste'molchilarning didi va talabini qanday uslubdagi mahsulotlar ko'proq yoqishi va haridorgirligini o'rganishdan iborat.

Hozirgi kunda marketing iste'molchilar talabini qondirish bilan bog'liq bo'lgan hamma faoliyat turlarida qo'llaniladi.

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimli yeg'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi.

Marketing tadqiqotlarimarketologlarni axborotlari orqali bozor, iste'molchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitining boshqa elementlari bilan bog'lovchi funksiyasi hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'tkazishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotning raqobatbardoshligi qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar. Umuman olganda, marketing tadqiqotlari korxona faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Marketing tadqiqotlarining yo'nalishi kengayib bormoqda. Lekin, quyidagi yo'nalishlaridagi tadqiqotlar korxona uchun eng muhim hisoblanadi.

- Bozor sig'imi va uning ko'rsatkichi;
- Aholi daromadlari;
- Iste'molchilarning hulq-atvori;
- Bozor ulushlarining firmalari o'rtasida taqsimlanishi;
- Reklama va uning samaradorligi;
- Narx siyosati va narx egiluvchanligi;
- Axborot oqimlari;
- Tovar harakati kanallari;
- Xalqaro biznes va eksport;
- Yangi mahsulotlarga iste'molchilarning asosiy tendentsiyalari;

- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendentsiyalari;
- Sotishni rag'batlantirish;
- Mahsulot va firmalarning raqobatbardoshligi;
- Firma xodimlarining faoliyati;
- Marketing infrastrukturasini.

Kuzatish marketing tadqiqotlarining eng ko'p tarqalgan usullaridan hisoblanadi. Kuzatish bevosita yoki yashirin, strukturalashtirilgan yoki strukturalashtirilmagan turlariga bo'linadi. Shaxs marketing deganda aniq shaxsga nisbatan jamoatchilik fikrini qo'llab-quvvatlash va o'zgartirish bilan bog'liq faoliyat yuritish tushuniladi.

Ommaviy marketing – hamma xaridorlar uchun mo'ljallangan, ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan bir tur tovarlarning marketingidir.

Maqsadli marketing-marketingning shunday turiki, bunda mahsulotlar ma'lum bir bozor segmenti uchun ishlab chiqariladi va ularning marketing ana shu bozor segmentiga mo'ljallab tashkil etiladi.

O'zgartiruvchi marketing-iste'molchilarning talabi salbiy bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Uning maqsadi iste'molchilarning salbiy munosabati ijobiy tomonga o'zgartirishdan iboratdir.

Rag'batlantiruvchi marketingdan iste'mol va xizmatlarga talab bo'lmay qolgan hollarda qo'llaniladi.

Rivojlantiruvchi marketing – tovarlarga yashirin talablar mavjud bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

Marketing nazorati-bu marketing maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan strategiya va marketing rejasi natijalarini o'lchash, baxolash va ularga o'zgartirishlar kiritish jarayonidir [5].

Ishlab chiqilgan dizaynni yaratishda bugungi kun moda tendensiyasi asosida takomillashuvi, bozor iqtisodiyotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moda kiyim bozori narxlar qiymati bo'yicha 2 guruhga bo'linadi: „prêt-à-porter“ va „couture“. Bu 2 tushuncha nihoyatda kengdir.

Tovar sotib olish jarayoni xaridorlarning psixologik stereotiplariga bog'liq bo'ladi. Bir xil buyumlar rejalashtirilmasdan to'satdan sotib olinadi, boshqalari esa yaxshilab ushbu buyum to'g'risida axborotlar o'rganilib so'ng sotib olinadi.

Hozirgi kunda jahon bozorlarida „prêt-a-porter“ uslubidagi liboslar, turli toshlar bilan bezak berilgan, printlar va applekatsiyalar tushirilgan liboslar urfda.

Bahor-yoz mavsumi uchun ko'plab dizaynerlar prêt-a-porter uslubidagi liboslar to'plamini yaratishdi (2,3- rasm).



2-rasm. Chapurin 13eom-a-porter bahor-yoz 2015



3— rasm. Valentino 14eom-a-porter bahor-yoz 2015

Bir necha bozor va do'konlarga kirib shuni tahlil qilindiki, hozirgi kunda „prêt-a-porter” uslubidagi to'g'ri bichimli kiyimlar urfda.

O'zbek ayollari tor shim va kalta koftalardan ko'ra milliy matolarimiz bo'lmish adras, xon-atlas, beqasamlarga talablari ortib borayotganini ko'rish mumkin.

Bozorlarimiz o'rganilar ekan hozirda o'lkamiz iqlim sharoiti yorqin ranglarni talab qilganligi bois aynan yorqin ranglardagi kiyimlarga talab ortib borayotganligiga guvoh bo'lish mumkin.

1.4. Xon-atlas matosidan tikilgan liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish

Tanlangan mavzu asosida iste'molchi tomonidan qo'yiladigan talablar, mo'ljalga nisbatan bo'lgan talablar ko'rib chiqiladi.

Avvalambor, nimaiki buyum, mahsulot bo'lmasin unga o'ziga yarasha qo'yiladigan bir qancha talabalari bo'ladi albatta. Bular quyidagilardir:

- iste'molchi;
- funksional;
- ijtimoiy;
- estetik;
- ekspluatasion;
- texnik-iqtisodiy;
- standartlash;
- ishlov berishga qulayligidir.

Xon- atlas matosidan tikilgan ayollar ko'ylagiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Estetik ko'rsatkichlar kiyimning shaxsiy iste'mol predmeti sifatida baholashda uziga hos ahamiyatga ega. Estetik hususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanishini oldini olish uchun, insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos hususiyatni bajarishga e'tibor berish lozim.

Kiyimning estetik ko'rinishi barcha konstruktiv elementlarning nafisligi, o'ziga xos yechimi, ifodaliligi, buyumning haridorgir ko'rinishini ta'minlaydigan elementlari majmuiga bog'liq.

Funksional ko'rsatkichlar kiyimning asosiy vazifasiga iste'molchining tashqi ko'rinishiga va uning psixologik xususiyatlariga mosligini bildiradi. Buyumning barcha xossalari uning vazifasiga ko'ra tanlansa, buyum insonning ehtiyojini qondira oladi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar buyumning ishlab chiqish va sotishga muvofiqligini bildiradi ommaviy ehtiyojlarga mosligini xarakterlaydi. Kiyim sifatiga oid ijtimoiy

talablar o'lcham va bo'ylar assortimentining haqiqiy ehtiyojlar hajmiga muvofiqligi muhim deb hisoblanadi.

Ishlov berishga qulayligi - mahsulotni yaratish, ishlab chiqish va foydalanish bosqichlarida barcha mehnat, vaqt va boshqa vositalarning sarf-harajatlarini kamaytirishga qaratilgan [3].

Libos kiyilganda qulay, yengil tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lishi lozim. Konstruktiv jihatdan yuqori darajada bo'lishi, yoki konstruktiv elementlari to'g'ri joylanishi va boshqalari o'rnida bo'lishi kerak.

1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash

Ijodiy jarayon - bu mazmun va shakl birligini qidirishdir. Ayrim hollarda ijodiy vazifa yechilganda, an'anaviy usullarni qo'llanishi qiziqarli yechimni bermaydi.

Dizayner biror bir kolleksiya yaratishdan avval, u nimadandir ilhomlanadi va bu uning kolleksiyasida namoyon bo'ladi. Loyihalash jarayonida dizaynerlarning ijodiy faoliyatini intensivifikatsiyalashga yo'naltirish mumkindir. Butun jahon dizaynerlari-barcha sohalarida davrga munosib yangi mahsulotlarni yaratish uchun yangi go'yalarni har qadamda qidirshadi. buyumlarni ishlab chiqarish firmalari dizaynerlardan qiziqarli g'oyalarni emas, balki ajoyib yangi, cheksiz, g'oyalarni talab qilishadi. Bu esa ijodiy fantaziyani yanada jadallashtirish usullarini izlanishiga sabab bo'ladi.

Dizayner kossyum kolleksiyasini yaratishda avval ijodiy manbaaga asoslanadi. Har bir dizayner, o'z kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalardan tortib, oddiy bir oshxona buyumigacha, tabiiy muhitning turli elementlarigacha foydalanishi mumkin. Aytaylik, u dunyoda sodir bo'layotgan voqea, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, etnik mavzular, muhandislik inshootlari, hattoki mashina detallari ham bo'lishi mumkin.

Oddiy bir amaliy san'at asarlarining bir necha turlarini, (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.) tayyorlanishini, musiqa asboblarning turlarini, yer fakturasidan tortib yomg'ir shamolgacha ijodiy manba sifatida foydalanishi ham mumkin ekan [6].

Umuman olganda, har bir dizayner o'z faoliyati davomida muayyan bosqichda, tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojaat qiladi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dizaynerlar davrlar mobaynida ijodiy manbaasi turli bo'lganini ko'rsitishimiz mumkin. XIX-XX asrlar oraligida bo'lgan badiiy uslub Modern jonli tabiatiga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me'morchilik imperiyasi paydo bo'ldi. XX asr modasi ko'pincha etnik va tarixiy manbaalarga ham murojaat qilgan. Klassik shaklni va ekzotik xalqlaridan

o'zlashtirilgan bezakni birga qo'shib, modellarni yaratgan dizaynerlar avlodi paydo bo'ldi.

Konsepsiyaga asoslanib, tanlangan mavzudan yiroqlashmagan holda, ijodiy manbaga “shimol yog’dusi” olindi (4-rasm). Ayollar assortimenti uchun eskizlar ishlab chiqildi. Ijodiy manbada ranglar yorqinligi, rangdan rangga o'tishdagi noziklik kabi xususiyatlarga tayanildi.



4- rasm. Shimol yog’dusi

„Shimol yog’dusi” yoki „Shimol kamalagi” – bu ajoyib go’zallik, xilma – xil ranglarning jilolanishidir. Aqlni lol qoldiradigan tabiat hodisasi. Shimol yog’dusi bir necha soatdan bir necha kungacha bo’ladigan hodisadir. Bu hodisa quyoshda portlashlar ro’y berganda Yer ionosferasiga zaryadlangan zarralar yog’ila boshlaydi va zaryadlangan zarralar siyraklashgan gaz zarralari bilan to’qnashib, ularni nur sochishga majbur qilishi natijasida hosil bo’ladi. Quyosh aktivligi qancha kuchli bo’lsa, shimol kamalagi osmon kengligini shuncha ko’p qismini

qamrab oladi. Har yillik siklda quyosh aktivligi maksimumga chiqqanda shimol kamalagi ham katta hajmda bo'ladi.

Shimol yog'dusi ijodiy manbaa sifatida tanlab olinganiga asosiy sabab undagi yorqin ranglar aynan xon atlas matosida mavjud bo'lgan ranglarga o'xshash. Xon atlas matosi to'qishda ishlatiladigan rangli iplar ketma – ketligi aynan shimol yog'dusini eslatadi.

2. Loyiha qismi

2.1. Eskiz loyihalash

2.1.1. Kolleksiyaning kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash

San'atning har qanday sohasida kompozitsion tuzilishsiz, uning barcha qism va komponentlarini uyg'unlashtirilmasdan turib, badiiy asar yaratish mumkin bo'lmaydi. Kompozitsion forma va mazmunni – yaxlitlikda ifodalashning muhim vositasidir.

Kompozitsiya – deganda biz ma'lum bir ifodaga ega tuzilmasini yaxlitlikda, maqsadli qurish, qaysiki, qismlari joylashuvi va o'zaro mutanosiblikda, bog'liqlikda bo'lishini va umumlashtirilgan, fikr va mazmunga egaligini tushunamiz.

Kompozitsion yondashuv qismlarining mantiqiy va chiroyli joylashuvini ta'minlaydi hamda formaga yaqqollik, chiroy baxsh etuvchi va mazmunini ravshanlashtiruvchi yaxlitlik yuzaga keladi.

Tuzilish va go'zallik mantiqi, qismlarning yaxlitlik, mutanosiblikdagi uyg'unligi, yuqorida qayd qilinganidek, nafaqat insonning yaratuvchanligiga bog'liq. Kompozitsiya alomatlarini biz tabiat formalarida, o'simliklarning tuzilishlarida, mavjudotlar organizmlarida, koinotning tuzilishida va hokazolarda ham ko'rishimiz mumkin.

Kompozitsiya – badiiy asar uchun “materiallarni” tashkillashtirish vositasi hamdir. Material deganda nafaqat, jismiy ashyo, ya'ni bo'yoq, 20eome'ta, loy va hokazolar ko'zda tutiladi. Bunda badiiy asrani yakuni yaxlit holiga keltirishdagi ijodiy jarayon uchun kerak bo'ladigan syujet, g'oya, natura, turli davrlar uchun illyustrativ materiallar va hokazolar ham ko'zda tutiladi. Bu haqida taniqli rus olimi (Л.Выгодский) adabiyot asari haqida “Material deganda barcha tayyor turmush munosabatlari, turli voqealar, turmush tarzi, harakterlar tushuniladi” deb yozgan edi [7].

Aytilgan ana shu materiallarning badiiy qurilish qonuniyatlarini asoslariga ko'ra joylashtirish, tartibotini – shu asarning formasi deyilsa to'g'ri bo'ladi. Chunki badiiy asarning yakuniy namunasida “materiallar” umumlashgan, yaxlit

ifoda vositasiga aylangan holda, muallifning xulosaviy natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Kompozision ishlov orqali mazmun va formaning birligiga erishiladi. Shuni ham e'tirof etish joizki, "mazmun" tushunchasi, mavzu, syujet, g'oya tushunchalaridan kengroqdir, chunki u ijodiy jarayon davomida qayta-qayta fikrlanib formalarga ishlov berish tufayli asarda materiallarni uyg'unlashtira olish va badiiy qiymatga erisha olish kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Kompozisiya tushunchasining tub ma'nosi – bu qandaydir g'oyani ifodalashda ishtirok etadigan turli unsurlarni o'zaro yaxlit ko'rinishda birlashtirilgan holatidir.

Kompozisiyaning asosi quyidagi prinsiplardan tashkil topadi:


- Maqsadga muvofiqlik prinsipi;
- Murakkablikning umumiyligi prinsipi;
- Dominantlikning mavjudligi prinsipi;
- Qismlarning o'zaro bo'ysundirilganlik prinsipi;
- Muvozanat, qismlarning o'zaro muvozanatda bo'lishi prinsipi;
- Dinamizm (harakat – hayot va san'atda asos sifatida);
- Uyg'unlik prinsipi.

Buyumning tashqi ko'rinishi va chegarasini ifodalaydigan 2leometric mohiyati shakl deb hisoblanadi. Shakl (lotin.– forma) – tashqi ko'rinish, chegara ma'nolarini bildiradi.

Shaklni tanlash va uni uzilishidan san'at boshlanadi deb san'atshunoslar hisoblashadi. San'atni boshqa turlariga nisbatan kostyum insonning siymosi va qomatiga ko'ra doimo rivojlanadigan ko'p sathli tizimdir. Shakl tushunchasini quyidagi nuqtai nazarlardan tahlil etilishi lozim: shakl-falsafa kategoriyasi; shakl-ramz; shakl-ob'ekt, buyum; shakl-faoliyat. Shu bilan bir qatorda shakl-bu ketma-ket omillar to'planishi va ularni doimo o'zgarishi, ya'ni tizimning dinamik modeli desa bo'ladi. Shakl tushunchasi insonning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Shakl buyum mavjudligining usuli, texnik va estetik zarurligi bilan ta'riflanadi. Shakl ma'lum psixologik ma'noni ifodalaydi va muayyan siymoli mazmunni ifodalovchi belgi, ramz tizimi deyiladi[8].

Dizayn shakli yaratilganda quyidagi talablariga ahamiyat beriladi:

- funksional-buyumning texnik maqsadini va insonning utilitar talablarini oldindan aniqlash;
- konstruktiv-texnologik – materialning fizik va mexanik xususiyatlari shakl konstruksiyasini oqilona ifodalash;
- estetik-jamiyatning estetik ideallariga buyumning mosligidir.



5-rasm.

Kostyum shakli inson bilan chambarchas bog'liq va faqat uning siymosi, o'lchami, harakatini inobatga olgan holda tahlil etilishi lozim.

Kostyumning har bir qatlami o'z xossalariga ega: ustki qatlami: rang, faktura, chiziq, naqsh, bezak, ya'ni kompozision bezak qatlamlaridan iborat; geometrik tarkib, u shakl elementlarining o'zaro proporsional nisbatlarini aniqlaydi; tana va qobiq orasidagi fazo; odam figurasi. Kostyum shakli biologi tizim kabi xususiyatlar to'plami yordamida barpo etiladi. Demak, shakl – bu odam qomati, muhit va belgilangan muayyan funksiya bilan bog'liq, elementlari esa o'zaro tarkibiy moslashgan fazoviy-vaqt modeli. Siymoli, funksional va texnik yechimlari bilan

bog'langan shakl geometrik elementlarining ma'lum fazoviy tizimi shakl deb tushuniladi.

Kostyum tarkibi-bu kostyumning ayrim elementlarining (kiyim, bosh va oyoq kiyim, qo'shimchalar, taqinchoqlar) turg'un tashkil etish usuli. Kostyumda shakl – bu uning tarkibini tashqi ko'rinishi. Kostyum tarkibini aniqlash uchun hajmlarning geometrik asoslarini ajratib olish kerak. Bu holda albatta bezak elementlari hisobga olinmaydi. Kostyumda asosan uchburchak, to'g'riburchak, trapesiya va oval kabi tarkib elementlari uchraydi. Tashkiliy prinsipi bo'yicha kostyum tarkibi simmetrik va nosimmetrik bo'lishi mumkin. Bitiruv malaka ishida „prêt-à-porter“ uslubidagi zamonaviy moda yo'nalishi o'rganildi, marketing tadqiqotlari natijasida hozirgi kunda ko'proq trapesiya shaklidagi liboslar urfda bo'lganligi uchun aynan shu shakl tanlab olindi.

Shakl elementlari bilan bema'lol foydalanish uchun quyidagi qoidalarni inobatga olish lozim:

- kostyumning xilma-xil turlarini tuzish asosi sifatida bazaviy shakl olinadi, chunki u davrga mos. Ularni sinchiklab o'rganish va kiyim loyihalashda ilmiy izlanishlar o'tqazish kerak. Sanoatni talvasaga solmasdan mantiqiy ravshda yangi shakl va materialni vujudga keltirish uchun talablarni tayyorlash shart;
- maksimal utilitar g'oyani ifodalagan shakl estetik shaklgacha o'sishi kerak. Shaklning mukammal emasligini yashiradigan tikuvchining quvliklari bo'lmasligi kerak va yomon konstruksiyani bezaksimon “yamoqlar” bilan chalg'itmaslik lozim;
- zamonga mos shaklni benihoya plastik ifodalikligi, naqsh va fakturani chuqur ma'noligi, modelni yuksak darajada va aniqlik bilan ijro etganligi istalgan natijani beradi;
- bazaviy shaklni tushunib yetish darajasi modaga nisbatan munosabatini aniqlaydi. Moda – bu bazaviy shaklning namoyoni, ammo har doim uni ta'riflamaydi;

- barcha modali siluettlarni sanoatda ishlab chiqarish shart emas. Faqat kelajagi bor siluettlarga tikilishi lozim. Ko'p fasonlarni yaratishga ham zaruriyat yo'q, chunki ular ishni qiynaltirib, mahsulotni mukammal emasligiga olib boradi [9].

Rang va shakl. Kostyumning rangli yechimi kompozision g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.



6-rasm.

Kostyumning rangli yechimi bo'yicha (Г.Пetryшкова) ning tahlili quyidagini ko'rsatadi:

-shakl geometriklansa, rang quyuqligi kuchayadi, kontrast yechimlari paydo bo'ladi; shakl plastikligi kuchaysa-o'xshash ranglar birikmasi ustunlik qiladi;

-rang gammasini o'zgarishi rang doirasi bo'yicha ketma-ket, sovuq va iliq ranglar baravariga yoki polixromiya (ko'p ranglik) yetakchi bo'lishi mumkin;

-moda gammasi xususiyatini o'zgarish indikatori sifatida polixromiyani ustunligi, noxromatik ranglarni ko'pligi bo'ladi;

-rang va shakl o'zaro bog'liq. Kostyum rangining tahlili quyidagi hulosaga olib keldi: ranglar muayyan geometrik shaklga intiladi, ya'ni qizil ranglar-to'g'riburchak, ko'k ranglar-oval, yashil ranglar-trapesiya shakliga intiladi.

-ranglarni muayyan shaklga intilishi ularni illyuziyalari bilan bog'liq: shakl kichraysa, kostyum koloritida shaklni moddiyligini va zichligini ko'rsatadigan iliq ranglar, kontrast birikmalar bo'ladi; shakl kattalashsa rang gammasi murakkablashib, sovuq tomonga o'tadi, ular shaklni ko'rinish vaznini va kattaligini kamaytiradi;

- fakturani roli kuchayganda kostyum gammasida iliq, yuza ranglar ustunlik qilib, faktura elementlarini ko'rsatadi;

-shakl inqirozga uchragan paytda rangni sovuq va iliq ranglari modaga kiradi, ular tarkibiy illyuziyasini, shakl yuzasini singanligini yoki illyuzor fakturaligini namoyish etadi;

-shakl vujudga kelganda, uni yaqqol ko'rsatadigan intensiv, faktura va ichki yechimlarini tenglashtiradigan ranglar ustunlik qiladi;

-perspektiv shakl ko'pincha qizil va qora rangda beriladi, chunki ular siluetni aniq ko'rsatadi;

-ketayotgan shakl sovuq, murakkab gammada beriladi, ular shaklni inqiroziga imkon tug'diradi, bo'linishlar ko'pligi rangli kontrast birikmalari bilan ta'kidlanadi.

Ranglar kompozitsiyada o'ziga xos xususiylik alomatlari bilan ishtirok etadilar. Barcha ranglar majmuasini 3 ta qatorga ajratish mumkin:

1. Qora va oq ranglar o'rtasida joylashgan kulrang axromatik tonlar;
2. Xromatik ranglar qatorini (spektr ranglar) quyidagi alomatlarga bo'lish mumkin:
 - A) Issiq gamma: sariq, zarg'aldoq, qizil va ularning oraliqlaridagi ranglar;
 - B) Sovuq gamma: yashil, ko'k, binafsha va ularning oraliqlaridagi ranglar;
 - C) Qo'shimcha ranglar – rang doirasidagi bir – biriga diametral qarama – qarshi joylashadilar.

3. Xromatik ranglardan (spektral) axromatik ranglarga qarab beruvchi qator, masalan, yashildan oqga boruvchi, yashildan qoraga boruvchi ranglar.

Kompozisiyada ranglarning ishtiroki juda muhim ahamiyatga ega. Dizayn va tasviriy san'atning barcha turlarida rang yechimi asosiy talablardan biridir. Chunki badiiy asarda asosan ko'rkamlik, obrazlilik, xashamatlilik kabi sifatlar rang ishtirokisiz uning emosional ta'sirchanligiga erishib bo'lmaydi.

Dizayn kompozisiyasiga asosiy talablari quyidagicha: kompanovka talablaridan kelib chiqqan holda qismlarini o'zaro muvofiqlashgan va bog'langan holda joylashuvi; texnika g'oyasiga va uning bajaradigan vazifasiga mosligi, haridorning emosional – hissiy istaklari, talablariga javob beradigan, badiiy obrazli ko'rinishiga ega bo'lgan dizayn mahsuloti; kompozision vositalardan ustakorlik bilan foydalanilgan. Kompleksli yechim birligiga va tartibga erishilganlik kabilar. Rangni badiiy obrazning ifodalovchi vositalarning asosiylardan biri ekanligini tushunish uchun uning tabiati haqida tushunchaga ega bo'lish lozim. Rang o'zligi (fenomeni) oddiy narsa bo'lmay, u birmuncha murakkabdir. Uning negizida ob'ektivlik – nur va sub'ektivlik – ko'rish kabi bir – biri bilan bog'liq hollar yotadi.

Ranglarni inson ruhiyatiga fiziologik ta'siri.

Qizil – qo'zg'atuvchi, ilituvchi, serharakatlikka undovchi, singuvchi. Butun organizmni serharakatlantiradi, qon bosimini oshiradi, nafas olishni tezlashtiradi.

Zarg'aldoq – qizil singari, unga o'xshash ammo sustroq ta'sir etuvchi.

Sariq – fiziologik jihatdan optimal, charchatmaydigan, nerv va ko'rish faoliyatini stimullashtiruvchi.

Yashil - fiziologik jihatdan optimal, ko'rish organiga eng tanish, orombaxsh, qon bosimini kamaytiradi, kapillyarlarni kengaytiradi, tinchlantiruvchi, mushak harakatlarini qo'zg'atuvchi va hokazo.

Havorang – tinchlantiruvchi, mushaklar tarangligi va qon bosimini pasaytiradi, tomir urishini maromlashtirib nafas olishni sekinlashtiradi.

Ko'k – tinchlantiruvchi, ta'siri asta – sekin siqilishga, ezilishga eltib boradi. Insonning fiziologik tuzilishi tizimi funksiyalarini to'silishiga olib keladi.

Binafsha – qizil va ko'k ranglar effektini o'zida mujassamlashtiradi. Nerv tizimiga siquvchi, ezuvchi ta'sir qiladi.

Umuman olganda turlicha ochargan ranglar tonlari masalan, qizil, sariq, ko'k, yashil, zarg'aldoq va hokazo ranglarning oq qo'shilib yoki o'zaro aralashmasidan hosil bo'lgan tonlar kishi ruhiyatiga murakkablashgan, nozik tuyg'u chaqiradi va turlicha emotsiya tarqatadi.

Ranglarning yana bir sub'ektiv ta'surotlaridan biri bu milliylik faktori bo'lib hududning madaniy an'analari, yoshi, jinsi, shaxsning madaniy darajasi, kasbiy faoliyati turi, psixologik – asabi tuzilishi kabilardir.

Ranglarning ob'ektiv xususiyatlari va ular chaqiradigan reaksiyalar:

- Rang qancha yorqin va to'qroq bo'lsa, psixik reaksiya aniqroq, intensivroq va turg'unroq bo'ladi;
- Ranglar murakkab, xiraroq, o'rta yorqin bo'lsa kishi diqqat e'tiborini kamroq, turg'unsozroq jalb qiladi;
- Ranglarning harakatligiga, og'ir yengilligiga, akustik sifatlariga e'tibor o'rtacha yoki umuman kam yengil qaraladi;
- Ranglarni qabul qilish va rang didi odamlarda turlicha bo'lib, ya'ni tam, hid bilish, sezish, his qilish kabilarga assotsiativ reaksiyasi bir – biridan farqlanadi, qaysiki ularning maxfiy ichki kechinmalari va sezgi organlari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi;
- Sariq va yashil ranglar eng boy va xilma – xil reaksiyalar chaqiradi. Chunki ular tabiatda boshqa ranglarga qaraganda ko'proq mavjud bo'lib, ularning xilma – xilligi kishi ruhiyatiga singib qolganligi tufayli ularning assosiativligi ham boy bo'ladi.

Ranglar bizning kayfiyatimizni ko'tarishi yoki uning aksi tushirishi ham mumkin. Rangning bunday xususiyatlaridan foydalanib biz har xil hayotiy hodisalarni o'zimizning foydamizga o'zgartirishimiz mumkin [10].

Bitiruv malaka ishida o'rta yoshdagi ayollarning psixologiyasi, qiziqishlari va ranglarning inson psixologiyasiga tasiri o'rganib chiqildi.

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner, hoh boringki oddiy tikuvchi bo'lsin uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Eskiz yaratayotganda avvalambor unga ketadigan matodan tashqari yana qanday furnitura mahsulotlari ishlatilishini ham inobatga olish lozim.

To'plam yaratilar ekan o'zimizning Marg'ilon xon atlaslarini yorqin rangli toshlar bilan bezatish ko'zda tutildi.

Xon-atlas xotin-qizlarimizning husnlariga husn qo'shib yanada go'zallik tuxfa etadi. Xon-atlas matosining juda ham ko'p turlari mavjud. Jumladan: Farg'ona yo'llari, Layli guli, Shirin, Maxliqo, Shodiqora, Shoti kapalak, oltin kalit, hamisha bahor, bog'-u bo'ston, Marg'ilon mash'ali shu kabi turlari ko'p tarqalgan.

Xon-atlas matosidagi maftunkor va yorqin ranglarni takrorlovchi toshlar bilan bezak berishga qaror qilindi.

2.1.2 Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavfsifini ishlab chiqish.



Asosiy taklif model – 1

Bahor – kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar ko'ylagi.

Ushbu ko'ylak o'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan bo'lib, prêt-a-porte uslubida tikilgan.

Silueti trapetsiya.

Uzunligi tizzadan yuqori.

Etak qismi tekis.

Old bo'lak 2 qismdan: old bo'lak koketkasi va old bo'lakdan iborat. Ko'krak vitochkasi yon qirqimda joylashgan. Koketka qismi taklif model asosida bezak toshlar bilan bezatilgan.

Ort bo'lak 2 qismdan: ort bo'lak koketkasi va ort bo'lakdan iborat. Ort bo'lak bo'yin o'mizini o'rta chokiga qirqim berilgan. Koketka qismi taklif model asosida bezak toshlar bilan bezatilgan.

Yengsiz.

Libosni 88-94 razmerlar va 176 bo'yga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.



Taklif model - 2

Bahor – kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar ko'ylagi.

Ushbu ko'ylak o'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan bo'lib, prêt-a-porte uslubida tikilgan.

Silueti trapetsiya.

Uzunligi tizzadan yuqori.

Etak qismi tekis.

Old bo'lak yaxlit bo'lib, ko'krak vitochkasi yon qirqimda joylashgan.

Ort bo'lak yaxlit.Ort bo'lak bo'yin o'mizini o'rta chokiga taqilmaga ishlov berilgan.

Yengsiz.

Libosni 88-94 razmerlar va 176 bo'yga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.



Taklif model - 3

Bahor – kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar ko'ylagi.

Ushbu ko'ylak o'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan bo'lib, prêt-a-porte uslubida tikilgan.

Silueti trapetsiya.

Uzunligi tizzadan yuqori.

Etak qismi tekis.

Old bo'lak yaxlit bichilgan bo'lib, ko'krak vitochkasi yon qirqimda joylashgan.

Ort bo'lak yaxlit.

Reglan yengli.

Libosni 88-94 razmerlar va 176 bo'yga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.



Taklif model - 4

Bahor – kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar ko'ylagi.

Ushbu ko'ylak o'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan bo'lib, prêt-a-porte uslubida tikilgan.

Silueti trapetsiya.

Uzunligi tizzadan yuqori.

Etak qismi tekis.

Old bo'lak 2 qismdan: old bo'lak koketkasi va old bo'lakdan iborat. Ko'krak vitochkasi yon qirqimda joylashgan. Koketka qismi taklif model asosida ko'ndalang bichilgan bo'lib, bezak toshlar bilan bezatilgan.

Ort bo'lak 2 qismdan: ort bo'lak koketkasi va ort bo'lakdan iborat. Ort bo'lak bo'yin o'mizini o'rta chokiga qirqim berilgan. Koketka qismi taklif model asosida ko'ndalang bichilgan bo'lib, bezak toshlar bilan bezatilgan.

Yengsiz.

Libosni 88-94 razmerlar va 176 bo'yga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.



Taklif model - 5

Bahor – kuz mavsumiga mo'ljallangan ayollar ko'ylagi.

Ushbu ko'ylak o'rta yoshli ayollarga mo'ljallangan bo'lib, prêt-a-porte uslubida tikilgan.

Silueti trapetsiya.

Uzunligi tizzadan yuqori.

Etak qismi tekis.

Old bo'lak yaxlit bo'lib, ko'krak vitochkasi yon qirgimda joylashgan.

Ort bo'lak yaxlit bo'lib, ort bo'lak bo'yin o'mizini o'rta chokiga taqilmaga ishlov berilgan.

Reglan yengli.

Libosni 88-94 razmerlar va 176 bo'yga mo'ljallab tayyorlash tavsiya etiladi.

2.1.4. Detallarni, chiziqlarni, choklarni , dekor bezaklarni hajmiy elementlarni texnik eskizlarini ishlab chiqish

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner modelyer uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib tasavvur qilib ko'radi.

Eskiz yaratayotgan paytda avvalam bor unga ketadigan matodan tashqari qanday furnitura mahsulotlari ketishini chamalab ko'rilishi kerak.

Kostyum loyihalash-bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va hisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan hususiyatlarga ega yangi kiyim namunasini yaratish jarayondir. Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash va maketlash usullarni qo'llaydi.

2.2 Kolleksiyanı loyihalash usulini tanlash va asoslash

Loyiha vazifalarnı eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash va maketlash usullarnı qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektnı yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud.

Loyiha – grafik modellash loyiha g'oyasini yaratishda va aks etishda yordam beradi. Loyiha – grafik – modellash quyidagilarnı ko'zlaydi: grafik shaklinı loyiha vazifasining ma'nosiga moslaydi; eskiz loyihani variant qidiruv va tajriba harakati; qo'yilgan vazifani yechish uchun loyiha qidiruvini mantiqiy ketma – ket va tizimli yondashish. Mavjud loyiha g'oyalarnı, texnologiyalarnı, korxonalarning iqtisodiy, badiiy madaniyat yutuqlarini (me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik) inobatga olib, dizayner avval o'z tasavvurida kelajak buyumning eskizini va dastlabki grafik tasvirini yaratadi (qidiruv eskiz, for-eskiz). Yangi yechimlarnı qidirish va variantlarnı tanlanish qog'ozda qilinadi. Keyin buyumning tashqi ko'rinishini ta'rifı va amaliy foydalanish qoidasi aniqlanadi. Natijada loyihalanayotgan buyumning badiiy-uslubiy va rangli-fakturaviy yechimi (eskiz loyiha) va konstruksiyasi, modelning proportsiyasi va silueti to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Dizaynda eng keng qo'llanadigan usul – retrospektiv modellash, ya'ni timsol va model o'xshashlarnı tahlilga asoslangan va ushbu tahlilni asosida yangi loyiha vazifasini tashkil etish. Ammo, bu usul dizaynning asosiy vazifasini bajarishga imkon bermaydi – yangi buyumlarnı yaratish emas, balki mavjudlarnı takomillashtirishdir.

Dizaynda boshqa modellashtirish usul – konstruktiv modellashdir – bu buyumning funksiyasini va morfologiyasini (morfologiya – buyumni funksiyalariga moslashgan) material shaklinı o'zgartirish. Konstruktiv modellash quyidagicha bo'lishi mumkin: korrektiv – buyumning funksiyasi va shakl

takomillashtiriladi; o'timli – buyumga yangi xossalarni berish uchun funksiyani va morfologiya qaytadan tushunib yetiladi (masalan, kiyim dizaynida dekonstruksiya usuli); proeksion – buyumni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi (kiyim yapon dizayneri I.Myake ijodi).

Dizaynda eng inovatsion usul deb perspektiv modellash yoki loyihaviy prognozlash hisoblanadi, u jamiyatning perspektiv rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi va shu timsoliga yetishga imkon beradigan loyihani yaratadi.

Bu bajarilayotgan loyihada kostyumni loyihalash usullari ishlatiladi. Kostyumni loyihalash usullari ketma-ketlik bilan bajariladi. Birinchi bo'lib loyiha – grafik – modellash usuli ishlatiladi. Bunda eskiz qismini qidiruvu bajarilib, asosan milliy amaliy san'atga yuzlanadi. Yog'och o'ymakorlik san'atini me'morchilikda, buyumlarda ishlatilishi ko'rib chiqilib, uning naqshlarini libosga qo'yish g'oyasi ustida ishlaniladi. Va bunga bir qancha for – eskizlar yaratiladi.

Keyingi usulimizga o'tish bu retrospektiv modellashdir. Bu loyiha usulida izlangan for eskizlarga mukammallik kiritish uchun o'xshash modellar ko'rib chiqiladi. Bunda jahon modasiga yani mashxur dizaynerlar ishiga yuzlanadi. Ulardagi matolar, libos siluettlari ko'rib chiqiladi va mos bo'lsa qo'llaniladi.

Uchinchi usul bu konstruktiv modellashdir. Bu usulda deyarli tayyor eskizni konstruksiyasi ko'rib chiqiladi. Ya'ni chizilgan eskizning konstruksiyasiga tanlangan mato yoki tanlangan matoga konstruksiya to'g'ri keladimi yoki yo'q aniqlanadi. Kiyimni funksiyasini va morfologiyasini ham ko'rib chiqadi. Kerak bo'lsa shu loyiha usuli sababli kiyimni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi [11].

Va oxirgi tanlangan loyiha usuli bu – prespektiv modellash bo'lib, bu ishlangan loyihani jamiyatga to'g'ri keladimi yoki yo'q, iste'molchi talabiga mosmi, o'zbek mentalitetiga to'g'ri keladimi aniqlaydi. Prespektiv modellash usulida kiyimni shu talablarga mos qilib yaratadi. Ayollarga pret-a-porter uslubidagi liboslarni yaratish uchun kostyum loyihalashning shu usullari tanlandi.

2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner modelyer uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib tasavvur qilib ko'radi.

Eskiz yaratayotgan paytda avvalam bor unga ketadigan matodan tashqari qanday furnitura mahsulotlari ketishini chamalab ko'rilishi kerak.

O'zbekistonning geografik joylashishi va iqlimi. Yoz kunlari odam organizmiga yuqori harorat ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo Respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo hududiga taalluqli iqlimiy, gidrologik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur territoriyaga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar, atlas va ma'lumotnomalar mavjud. Regionga hos atmosfera jarayonlarining hususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

O'zbekistan Respublikasi Evroosiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi, graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi va etmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydony 447,4 ming km² ga teng.

O'zbekiston Shimoldava G'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmanistonva Afg'oniston, SharkdaesaTojikistonva Qirg'izistonbilanchegaradoshdir.

Respublikatengsizikki qismga bo'linadi: 78,8 foizi - tekisliklar, qolgan 21,2 foizitog'larvatog'lararo cho'nqirlar.

Respublika hududi Osiyoning quruq zonasigakiradi.Uning 70 foizdan ko'prog'i iqlimiy o'zgarishlargamoyilsahrovayarimdashtlardan iborat.

O'lkamizda to'qiladigan ipak, paxta gazlamalarining turlari juda ko'p. Masalan, xon-atlas, adras, beqasam, banoras, doz adras va h.k. Bularning bari matolarni bo'yash san'atining yuksakligi mahalliy gazlama to'qish uslublari ular

qo'lidan chiqadigan matolar rang - barangligi va naqsh ikatlarning bir - biriga o'xshamasligi, nafisligi bilan ajralib turadi.

Tabiiy tabiat inomlaridan yaratilgan bu matolarda tana bemalol nafas oladi. Ma'lumki, tabiiy matolarning inson sog'lig'iga hech qanday yomon ta'siri va zarari yo'q. Aksincha, u tana nafas olishiga, yordam beradi, terlatmaydi, ventilyatsiya vazifasini yaxshi bajaradi.

Tanlagan mato xon-atlas haqida gapiradigan bo'lsak, avvallari bundan 5-6 yil avval xon atlasni kelinlar sarpasida ishlatilar edi. Kelinlar uchun xizmat qiladigan bu matolar endilikda kundalik hayotimizga kirib keldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu mavsumda ko'pgina taniqli dizaynerlar bor e'tiborlarini ipak matolariga qaratgani ko'rinadi. Moda pokazlarida poudiumga chiqqan ko'p kolleksiyalarda buni yaqqol ko'rish mumkin.

Xon-atlas matosidan zamonaviy bichimda bichilgan prêt-a-porter uslubidagi liboslar nafaqat o'rta yoshli ayollarga, balki yosh qizlarga ham birdek yoqadi. Hashamdorligini, jozibadorligini oshirish maqsadida dekor sifatida setka va qimmat baho toshlar bn bezatilgan.

Matolarning mexanik xossalari. Matoning mexanik xossalariga pishiqligi, uzayishi, ishqalanishga chidamliligi, g'ijimlanuvchanligi, qattiqligi va boshqa xossalar kiradi.

Matoning fizik xossalari. Matoning fizik xossalariga gigroskopikligi, havo o'tqazuvchanligi, bug' o'tqazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, xo'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi va boshqa xossalari kiradi. Fizik xossalariga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardoziga bog'liq bo'ladi [12].


Matoning gigienik xossalari. Ipak gazlamalarining gigienik xossalariga uning inson salomatligi uchun xavfsiz va zararsiz ekanligini ta'minlaydi. Shunga ko'ra ipak gazlamalar o'zida gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik va xalqaro standartlar (ISO, ASTM), Respublikamizdagi mavjud standart metodikalari tomonidan baholandi.

Gazlama xossalariga tolaning uzunligi, qalinligi, ularning mustahkamligi, mayinligi va pishiqligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

2.1-jadval

№	Mato nomi	Mato tarkibi		Qalinligi		To'qilishi	Eni	Og'irligi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	Xon-atlas matosi	ipak	ipak			polotno	40	
3.	Qotirma	kapron	viskoza	520	410	jakkard	150	80

Konfeksion karta

№	Detall nomi	Namuna
1	2	3
1.	Asosiy mato	
2.	Qotirma	
3.	Ip	
4.	Tesma	
5.	Furnitura	

2.3.2. Xon-atlas matosidan prêt-a-porter ayollar liboslari to'plamini ishlab chiqishda loyihalash usulini tanlash

Kostyum loyihalash-bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va hisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan hususiyatlarga ega yangi kiyim namunasini yaratish jarayondir. Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash va maketlash usullarni qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektni yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud.

Dizaynda eng inovasion usul deb perspektiv modellash yoki loyihaviy prognozlash hisoblanadi, u jamiyatning perspektiv rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi va shu timsoliga yetishga imkon beradigan loyihani yaratadi.

Bu bajarilayotgan loyihada kostyumni loyihalash usullari ishlatiladi. Kostyumni loyihalash usullari ketma-ketlik bilan bajariladi. Birinchi bo'lib loyiha – grafik – modellash usuli ishlatiladi. Bunda eskiz qismini qidiruvu bajarilib, asosan milliy amaliy san'atga yuzlanadi. Yog'och o'ymakorlik san'atini me'morchilikda, buyumlarda ishlatilishi ko'rib chiqilib, uning naqshlarini libosga qo'yish g'oyasi ustida ishlaniladi. Va bunga bir qancha for – eskizlar yaratiladi.

Keyingi usulimizga o'tish bu retrospektiv modellashdir. Bu loyiha usulida izlangan for eskizlarga mukammallik kiritish uchun o'xshash modellar ko'rib chiqiladi. Bunda jahon modasiga yani mashxur dizaynerlar ishiga yuzlanadi. Ulardagi matolar, libos siluettlari ko'rib chiqiladi va mos bo'lsa qo'llaniladi.

Uchinchi usul bu konstruktiv modellashdir. Bu usulda deyarli tayyor eskizni konstruksiyasi ko'rib chiqiladi. Ya'ni chizilgan eskizning konstruksiyasiga tanlangan mato yoki tanlangan matoga konstruksiya to'g'ri keladimi yoki yo'q aniqlanadi. Kiyimni funksiyasini va morfologiyasini ham ko'rib chiqadi. Kerak bo'lsa shu loyiha usuli sababli kiyimni funksiyasi va shakli qaytadan yaratiladi.

Oxirgi tanlangan loyiha usuli bu – prespektiv modellash bo'lib, bu ishlangan loyihani jamiyatga to'g'ri keladimi yoki yo'q, iste'molchi talabiga mosmi, o'zbek mentalitetiga to'g'ri keladimi aniqlaydi. Prespektiv modellash usulida kiyimni shu talablarga mos qilib yaratadi. Erkaklar ko'ylaklarini yaratish uchun kostyum loyihalashning shu usullari tanlandi.

Ayollar ko'ylagini yaratishda ko'proq konstruktiv modellash usuli 1 – o'rinda turadi. Shuning uchun bitiruv malaka ishida ingliz metodikasi tanlab olindi.

Unifrend Aldrich – moda industriyasida yuqori malakali kadrlarni o'ziga jalb etuvchi ingliz metodikasi hisoblanadi. Liboslarni konstruksiyalash bu jarayon hisoblanib, uning asosiy ob'ekti qimmat kiyim sistemasidir. Qomat bo'yicha ma'lumotning, olgan belgilarining qomat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarining qanchalik to'liqligiga qarab chizmalarning sifati belgilanadi.

Buyuk Britaniyada 20 ta o'lcham belgilanadi. Shu sababli ko'pgina konstruktiv parametrlar hisoblanmaydi va ayollar tipoviy qomatiga mos tekshirilgan o'xshashlik orqali amalga oshiriladi.

Unifrend Aldrich ingliz metodikasi modellashtirishning va konstruksiyalashning dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon beradi.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o'sib boruvchi raqamlarning ishlatilishi asosiga binoan andozani qurish sistemasining mohiyati bo'yicha har bir nuqtaning joylashish ketma – ketligini aniqlash mumkin. Konstruktiv o'lchamlar asosida bajarilgan andozalar sxemasi ko'rsatib o'tilgan.

Ingliz metodikasi tipavoy va notipavoy qomatga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo'luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalardan iborat [13].

2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalari qurish uchun dastlabki ma'lumotlar
Tipaviy figura o'lchamlari

2.2. –jadval

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati
1	2	3	4
	Bo'y	P	176
	Ko'krak aylanasi uchinch	O _{г3}	84
	Bel aylanasi	O _т	66
	Bo'ksa aylanasi	O _б	90
	Orqa kengligi	Ш _с	33,4
	Ko'krak kenglik	Ш _г	31,2
	Yelka kengligi qiyamasi	Ш _п	12
	Bo'yin qiyamasi	O _ш	36
	Ko'krak vitochkasi oralig'i	P _{нв}	6,4
	Bitseps aylanasi	O _{бшц}	27
	Bilak aylanasi	O _{зап}	15,5
	To'piq aylanasi	O _ш	23,5
	Oyoq to'pig'ining tepasi	O _{ншц}	20,5
	aylanasi	Д _{тс}	40,5
	Ort bel chizig'igacha uzunlik	B _{прз}	20,5
	Ort o'miz balandligi	Д _{тп2}	40,5
	Old bel chizig'igacha uzunlik	Д _{тб}	20,3
	Beldan bo'ksagacha uzunlik	Д _{рзап}	58
	Qo'lning bilak to'pig'igacha		
	uzunlik		
	Qo'l uzunligi	Д _{рук}	52

AK qurish uchun qo'shimchalar

2.3. – jadval

№	Qo'shimchaning nomlanishi	Shartli byelgi	O'lcham Qo'shimcha, sm
1	Ko'krak aylanasi qo'shimcha	П г3	5
2	Orqa o'mizi balandligini qo'shimcha	Пвпрз	0,5
3	Yelka kengligiga qo'shimcha	Пшсп	0,5

2.3.4. Asos konstruksiya chizmasining hisobi(176-88-94)

2.4. - jadval

№	Konstruksiya bo'lagi	Formula, xisob	Qiymati, sm
1	2	3	4
Bazis to'ri			
1	0-1	1,5	1,5
2	1-2	$B_{np3} + 2,5$	23
3	2-3	$0,50 + 7$	49
4	3-4	$10 - 21$	24,5
5	1-5	D_{TC}	40,5
6	5-7	D_{r6}	20,3
Ort bo'lak			
7	10-9	$1/5 O_{ш} - 0,2$	7
8	1-10	$1/5 B_{np3}-1$	3,1
9	9-11	$U/\pi + 1$	13
10	2-12	$0,5 U/c + 1$	17,7
11	12-14	$0,5/12 - 131$	10
Old bo'lak			

12	4-15	$1/5 O_{III} -0,7$	6,5
13	4-16	$1/5 O_{III} -0,2$	7
14	15-17	$0,5 P_{HB}$	3,2
15	3-18	$0,5 III_T +1+0,5/15-17/$	18,2
16	18-19	$0,5/3-16/-2$	6,8
17	3-20	$0,5/3-18/$	91
18	11-21	1,5	1,5
19	21-22	1,5	1,5
20	77-23	$1,5 III_{II} +0,5$	12,5
21	78-24	$0,5/12-18/$	6,5
22	12-27	2,5	
23	18-28	2,5	

2.3.5. AK va BK ni konstruktiv-dekorativ modellashtirish.

Ayollar pret-a-porter liboslari asos konstruksiyasida yelka qirqimidagi ko'krak vitochkasi model bo'yicha yon qirqimga ko'chirildi.

Eskiz bo'yicha ko'ylak tizzagacha uzaytirilgan va etak qismi dekorativ modellashtirilgan. Yelka uzunligi eskiz bo'yicha toraytirilgan - 7 sm.

Ort bo'lakda yelka qirqimidan 16 sm pastga tushirilib, koketka hosil qilingan. Bo'yin o'mizini o'rta chokiga taqilmaga ishlov berilgan.

Old bo'lakda yelka qirqimidan 16 sm pastga tushirilib, koketka hosil qilingan. Bo'yin o'miz shakli saqlanib qolgan.

Etak qismi trapetsiya shaklini hosil qilishu uchun kengaytirildi.

2.3.6. Ishchi xujjatlarini ishlab chiqish

2.3.6.1 Yangi modellar andazalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi

ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shabloni yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

Andozalardagi chok haqi

2.5. - jadval

№	Detalvaqirqimlarnomi	Chok haqi nomi va qiymati, mm				
		Briktirma	Mag'iz	Buklov	Kirishtirish	Qir qis h
1	2	3	4	5	6	7

1.	01. Ortbo'lakkoketkasi - bo'yin qirqim - yelka qirqim - o'miz qirqim - yon qirqim - koketka qirqimi	10 10 10 10 10	5	15		
2.	02. Ort bo'lak - koketka qirqimi - o'miz qirqim - yon qirqim - etak qirqim	10 10 10 30	5	15		
3.	03. Old bo'lak koketkasi - bo'yin qirqimi - yelka qirqimi - o'mizqirqimi - yon qirqim - koketka qirqimi	10 10 10 10 10				
4.	04. Old bo'lakkoketka qirqimi - o'miz qirqimi - yon qirqimi - etak qirqimi	10 10 30				
5.	05. Ort bo'lak adipi - bo'yin qirqimi - yelka qirqimi	10 10				

	- o'mizqirqimi	10				
	- yon qirqim	10				
	- koketka qirqimi	10				
6.	06. Ort bo'lakkoketka qirqimi					
	- o'miz qirqim	10				
	- yon qirqim	10				
	- etak qirqim	30				

Andazalar spetsifikatsiyasi

2.6.-jadval

№	Qismlar nomi	Qismlar soni		Belgilanishi
		bichimda	andazada	
	1	2	3	4
1	Ort bo'lak koketkasi	1	2	01
2	Ord bo'lak	1	1	02

3	Old bo'lak koketkasi	1	2	03
4	Old bo'lak	1	1	04

Andozalarda nazorat kertiklar joylarining ro'yxati

2.7. - jadval

№	Detallar va qirqimlar nomi	Kertiklar joylashishi
1	2	3
	Ort bo'lak koketkasi - Yoqa o'mizi - Yeng o'mizi	O'miz qirqimida O'miz qirqimida
	Ort bo'lak - O'rta qirqim - Bel chizig'ida	O'miz chizig'ida Bel chizig'ida
	Old bo'lak koketkasi - Yoqa o'mizi - Yeng o'miz	O'miz qirqimida O'miz qirqimida
	Old bo'lak - Yeng o'mizi - Yon qirqim - Bel chizig'ida	O'miz chizig'ida Vitochka o'rnida Bel chizig'ida

Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan yo'l qo'yilgan og'ishlar

2.8-jadval

№	Detallar nomi	Tanda ipining yo'nalishi	Tanda ipining yo'l
---	---------------	--------------------------	--------------------

			qo'yilgan og'ishi, %
1	2	3	4
1	Ort bo'lak koketkasi	Koketka qirqimiga paralell	1%
2	Ort bo'lak	Etak qirqimiga paralell	2%
3	Old bo'lak koketkasi	Koketka qirqimiga paralell	1%
4	Old bo'lak	Etak qirqimiga paralell	2%
5	Ort bo'lak adipi	Koketka qirqimiga paralell	1%
6	Old bo'lak adipi	Koketka qirqimiga paralell	1%

2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish

2.4.1. Nom tanlash (BREND-NAME)

Brend-bu raqobatchilardan farqlanish maqsadida aniq sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari va xizmatlarini belgilash uchun qo'llanadigan so'z, ifoda, belgi, simvol, dizaynerlik ishi yoki ularning kombinasiyasidir.

Brend – aniq bir ishlab chiqaruvchining tovarlari yoki xizmatlarini identifikatsiya qilish, shuningdek, uni raqobatchilar mahsulotidan differentsiya qilish uchun mo'ljallangan nom, termin, simvol, rasm yoki shu elementlarning kombinasiyasidir.

Xon-atlas matosidan “prêt-a-porter” ayollar liboslari yaratilgandan so'ng ushbu kolleksiyaga “*Yog'du jilosi*” deb nom berildi. Brend nomi ijodiy manbaadan kelib chiqib qo'yildi. Bu nomdagi “yog'du” so'zi ijodiy manbaadan olingan. Kolleksiya to'plamida dekor sifatida turli ranglardagi toshlar jilolanib turganligi sababli shu nom brend-name sifatida tanlandi

2.4.2. Xon atlas matosidan prêt-a-porter ayollar libosi to'plami reklama loyihasini ishlab chiqish

Reklama-lotinchacha „reklamar” baqirish ma’nosini bildirgan bo’lib, keyinchalik sa ovoz chiqarish va talab qilish ma’nolarini anglatgan. Oddiy tilda aytganda reklama ma’lum qilish, nimadir to’g’risida ma’lumot yetkazish, tovarga haridorlarni e’tiborini chaqirish uchun xizmat qiladi.

Reklama – bu axborot tarqatishning pullik shakli bo’lib, u tovarni yoki xizmatni hajmini ko’paytirish maqsadida buyurtmachi tomonidan berilgan informatsiyani jamiyatga yetkazish usuli hisoblanadi.

Reklama quyidagi vazifani bajaradi:

- Axborot beruvchi yangi tovar, firma aniq hodisa to’g’risida aniq ma’lumot beradi;
- Bildiruvchi tovar yoki firmaga sekin-asta iste’molchilarni e’tiborini ko’paytirish, bilimlarini oshirish va shu tovarni sotib olishga undash;
- Eslatuvchi haridlar orasida tovarni qayerdaligini unutmaslik va tovar to’g’risida axborotni esda tutishni ta’minlaydi.

Reklamani yaratish quyidagi bosqichlardan iborat:

- Iste’molchilarni o’rganish, reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlarni o’rganish va bozorni o’rganish;
- Reklama vositalarini ishlatish, ishlab chiqarish, maqsadni aniqlash va qo’yish, bozor chegaralarini belgilash va ijodiy yondashuvni ishlab chiqish;
- Reklama vositalarini tanlash va ularga sarflanadigan harajatlarni hisoblash. Narx va e’lonlarni ko’rsatish grafiklarini ishlab chiqish;
- E’lonlarni mazmunini tuzish, badiiy bezatish va ishlab chiqarish.

Reklama turlari bo’yicha quyidagilarga bo’linadi:

- Televidenie va radioreklama;
- Baner reklama;
- Suvenir yoki buyumli reklama;
- Direkt meyl;

3. Ekologik qism

Tikuvchilik sexlarida ishchilarni ta'minlash

O'zbekistonda mehnat muhofazasi ko'plab qonun chiqaruvchi rasmiy xujjatlar bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, tartibga solib va boshqarib turiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat haqidagi qonunlar asoslarida mehnat muhofazasiga oid asosiy nizomlar keltirilgan.

Mehnat muhofazasi bo'yicha qonunlarning bajarilishini nazorat qilib turish quyidagi davlat tashkilotlariga topshirilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi mehnat Vazirligi. Mehnat muhofazasi Davlat texnik nozirligi;
2. Davlat qon texnik nazorati agentligi;
3. Respublika sanepidemstansiya nazorati;
4. Davlat yong'in nazorati;
5. Davlat energiya nazorati.

I. Mehnat muhofazasi Davlat texnik nozirligi.

Bular korxonalarda xavfsiz ishlash, texnik xavfsizligi bo'yisha me'yor va qoidalariga rioya qilish, sanoat sanitariyasi va mehnat gigienasiga rioya qilish, mehnat qonunchiligiga rioya qilish masalalarini nazorat qiladi.

Kasbiy kasallik inson organizmiga mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liq bolgan zararli omillar ta'sir qilishi natijasida paydo bo'ladi. Ishlovchilarning organizmiga ishlab chiqarishdagi zaharlarning ta'sir ko'rsatishi oqibatida ro'y beradigan kasbiy kasallanishlarning bir turi deb hisoblash mumkin. Kasbiy zaharlanishlar surunkali va og'ir bo'ladi. Surunkali zaxarlanishlar asta-sekin rivojlanib boradi va organizmga uzoq vaqt mobaynida oz-oz miqdorda zahar kirishi tufayli ro'y beradi.

Tikuvchilik fabrikalarida asosiy sexlaridan chiqadigan zararli moddalar. Zamonaviy tikuvchilik fabrikalari ishlab chiqarishda potok jarayonlari bo'lgan mexanizasiyalashgan korxonalardir. Texnologik jarayonlarni bajarishda ko'plab miqdorda issiqlik, namlik, shuningdek, chang ajralib chiqadi. Kiyim, asosan sun'iy materiallarida shu kiyim sirtida elektristatik zaryadlar to'planishi kuzatiladi. Ularni neytrallash uchun sexlarda zarur issiqlik, namlik rejimini saqlash zarur. Demak,

sexlarda sun'iy mikroiklim hosil qilish sanitariya-gigienagina emas, balki texnologik talablardan ham kelib chiqadi.

Issiqlik tarqalishining asosiy manbalari tikuv mashinalari buyumlarini termik qayta ishlash uskunalari (bulgi va elektr presslar, elektr dazmollar va hokazolar), shuningdek, odamlar, elektr yoritkichlar va yozgi payta quyosh nuridir.

Korxonaga ishga kirayotgan har bir hodim mustaqil ishlashga faqat xavfli ish usullari bo'yicha yo'riqnoma olgandan, mahsus malaka olgandan va bilimi tekshirilgandan keyin qo'yiladi. Bug' va issiqlik qozonlari, yuk ko'tarish kranlari, bosim ostida ishlovchi idishlar, elektr uskunalari, mahsus uskunalar kabi xavfli ishlarda ishlovchilar maxsus o'quv kurslarini bitirganlari haqida hujjatlari bo'lsagina ishga ruhsat beriladi. Hodimlarni xavfsiz ish usullariga o'qitish va ularni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha umumiy raxbarlik va javobgarlik korxona raxbarlariga va boshqaruv tashkilotlariga yuklanadi. Sexlarda va bo'limlarda ishchilarni va ustalarni xavfsiz ish usullariga o'rgatish shu sex va bo'lim rahbarlariga yuklatiladi. Xavfsiz ish usullariga o'z vaqtida va sifatli o'qitishni nazorat qilish mehnat muhofazasi bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Xavfsizlik texnikasi:

Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari va ulardan himoyalanish. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning va kasbiy kasalliklarning asosiy sabablari. Xavfsizlik standartlar sistemalarida ishlab chiqarish jarayonlariga va uskunalarga qo'yiladigan talablar. Uskunalarining asosiy xavfsizlik qoidalari. Ogohlantiruvchi, to'suvchi va signal beruvchi vositalar. Xavfsizlik ranglari va belgilari (7-rasm).



7-rasm. Xavsizlik texnikasi burchagi

Elektr tokining kishi organizmiga ta'siri. Shikastlanish turlari. Elektr toki bilan jaroxatlanish xavfini oshiruvchi sharoitlar. Jaroxatlarning oldini olish tartiblari. Ish joyini xavfsiz tashkil qilish va saqlashga qo'yoladigan talablar. Yuk ko'tarish va tashish mexanizmlari, ichki transport vositalaridan xavfsiz foydalanish qoidalari.

Ishlab chiqarish sanitariyasi:

Ishlab chiqarish muhitining asosiy sanitariya-gigienik omillari. Mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha asosiy tadbirlar (texnik va tashkiliy, Sanitariya-gigienik, davolash-profilaktika). Ish joylari havosini almashtirishning zaruriyati va tuzilishi. Yorug'likni to'g'ri tashkil qilish. Shovqinga qarshi tadbirlar.

Shaxsiy himoya vositalari, ulardan foydalanish me'yor va qoidalari. Himoya vositalariga qo'yiladigan talablar. Korjomalar, mahsus poyafzallar. Qo'lni, boshni, betni, ko'zni, nafas a'zolarini, quloqni himoya qilish. Ogohlantiruvchi moslamalar. Shaxsiy gigiena qoidalari. Sanitariya kiyimlariga, poyafzallariga va vositalariga qo'yiladigan talablar.

Korxona yong'in xavfsizligiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Mexanik jaroxat olganda, kuyganda, kislota va ishqorlar bilan kuyganda, zaxarlanishda, elektr va ko'z jaroxatlari olgandagi dastlabki yordam.

Xulosa

Bitiruv malaka ishida “liboslar dizayni” kafedrası tomonidan xon-atlas matosidan “prêt-a– porter” ayollar liboslari dizayn loyihasi ishlab chiqish mavzusi berildi. Ushbu mavzu asosida loyiha oldi qismi bajarildi. Loyiha oldi qismida loyihalanayotgan assortiment bo'yicha kontsepsiya, ijodiy manba tanlanib, ularga va istiqbolli moda yo'nalishiga tavsif berildi. O'xshash modellar bo'yicha marketing tadqiqot olib borildi va tahlil qilindi.

Loyiha qismida kolleksiya kompozitsiyon yechimi va koloristik qatori tanlandi. Shuningdek loyiha qismida eskizlar yaratildi. Zamonaviy moda yo'nalishi va bozor talabiga javob beradigan 5 ta model tanlandi va modellarni texnik tavsifi ishlab chiqildi.

O'zbekiston sharoitini o'rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material hususiyatlari o'rganib chiqildi. Ingliz metodikasi bo'yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalarga qo'yilgan talablar bajarildi. Andozalar joylashmasi bajarildi.

Kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi va mavzuga mos nom tanlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. IslomKarimov “2014-yilda Respublikani iqtisodiy rivojlantirish yakunlarida 2015-yilgacha amalga oshirilgan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risida” ma’ruzasi
2. X.X.Kamilova, N.K.Hamrayeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. Yunusxo'jayeva X.M. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” kurs leksiya.
4. G.K.Xasanbayeva M.Sh. Shomansurova “Mahsus kompozitsiya” Toshkent 2007-yil.
5. Sobirova Z. “Marketing va menejment”
6. Козлова Т.В. “Художественное проектирование костюма” М ЛП 1988 г.
7. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г
8. G.K.Xasanbayeva “Libos dizayni” ma’ruza matni. - T.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011
9. Ф.М.Пармон “Композиция костюма”. - М.: Легпромбытиздат, 1985.
10. Muhamadiyev E.M. “Kompozitsiya asoslari” Samarqand 2010.
11. Е.А.Янчевская “Ayollar ustki kiymini konstruksiyalash”. - T.: “O'qituvchi”, 1997.
12. J.Ochilov “Gazlamashunoslik”. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
13. M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O'zbekiston”, 1994.
14. О.И.Крымова «Проектирование швейных изделий». – Т.: «Укитувчи», 1985.
15. BAZAAR 2014 – 2015 (Журнал).
16. Ателье 2015 (Журнал).
17. COLESIONE 2015 (Журнал).
18. Dolce & Gabbana new collection spring – summer 2015
19. odejdi v stile “prêt-a-porte” 2014-2015

- 20. www.google.uz
- 21. www.ziyo.net
- 22. www.moda.uz
- 23. www.modnaya.ru
- 24. www.krasota.ru
- 25. www.textil-press.ru
- 26. fashion_tv.com